

Pedagoglarni Yangi Metodikalarga O'rgatish Milliy Markazi Tinglovchilarining Kommunikativ Kompetensiyalarini Takomillashtirish Tizimi

Mirzayeva Xolida Normurodovna

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari" kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya: Ilmiy maqolada pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi tinglovchilarining kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish tizimi tahlil qilingan. Bugungi kunda pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi tinglovchilari ingliz tilini o'rganish orqali ularning kompetentligini shakllantirish bo'yicha pedagogik tizimning amaliy tizim ishlab chiqishda biz konseptual g'oyalardan tashqari quyidagilarga ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: tinglovchi, kommunikativ kompetensiya, takomillashtirish tizim, milliy markaz, ingliz tili, pedagogik tizim.

Bugungi kunda innovatsion ta'limning nazariyotchi va amaliyotchilari muhandislik, texnika va texnologiya sohasida, nafaqat, muayyan bilim va ko'nikmalar, balki ularni amalda, real hayotda qo'llash qobiliyatiga qaratilgan maxsus kasbiy kompetensiyalar bo'yicha mutaxassislarni shakllantirish zarurligi haqida gapiradilar.

Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bilan belgilanadi (bular pedagogik, innovatsion texnologiyalar, o'quv faoliyatining tashkiliy shakllari va metodlari). Mazmuniy shart-sharoitlar tinglovchilarga turli kasbiy vazifalarni hal etish uchun zarur bo'lgan bilimlarni beradi. Protessual sharoitlar esa, ta'lim jarayonining texnik va instrumental ta'minotini belgilaydi. Qadriyatli-motivatsion sharoitlar bu -tinglovchilarning zarur shaxsiy sifatlarining shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydi.

Tizim tabiiy yoki ijtimoiy voqelikning ma'lum bir bo'lagining analogi sifatida asl nusxa, uning xossalari va tuzilishi haqidagi bilimlarni saqlash va kengaytirish, uni o'zgartirish va boshqarish uchun xizmat qiladi.

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi tinglovchilari o'rtasida ingliz tili orqali tinglovchilar takomillashtirish uchun pedagogik tizimning integrativ maqsadi, nafaqat, ularga maxsus matnlarni o'qish va tarjima qilish ko'nikmalarini o'rgatish, balki birinchi navbatda, ta'lim standartida belgilangan vaziyatlarda ona tili bilan bog'liq o'zaro va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish qobiliyati va tayyorgarligini takomillashtirishdir. Tizimning protessual-texnologik komponentini hosil qiluvchi elementi tinglovchining shaxsidir, chunki u faqat sohaga harakat qilibgina qolmay, balki unga egalik qiluvchi shaxs, bu esa har bir o'qituvchidan ta'lim usullaridan to'g'ri foydalanishni, jamoada ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchilar orasidagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, o'quv axborotlari mazmunining hajmi va ularning murakkabligi, o'quv predmetning maqsadi va spetsifikasi, ta'lim beruvchining kompetentligi va uning shaxsiy sifatleri kabilar ta'lim jarayonidagi muhim omillardan biridir.

Ma'lumki, pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida ingliz tilida muloqot qilish, talaba ma'lum bir ko'nikma va malakalar bilan faoliyat yuritib, faoliyatga taqlid qilibgina qolmay, faoliyat motiviga egalik qilsa, ya'ni motivlangan nutq harakatlarini bajarsa, ijodiy, shaxsan-motivlangan jarayonga aylanadi.

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi tinglovchilarining kompetentligini shakllantirish bo'yicha taklif etilayotgan pedagogik tizim, yaxlit tizimning barcha xususiyatlariga ega ekanligini isbotlaydi.

Mazkur tizim kompetensiyaning maxsus, ijtimoiy, shaxsiy va individual kabi turlari mavjud bo'lib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini quyida bayon qildik:

1. Hozirda maxsus yoki kompetentlik faoliyatni yuqori darajada egallashni tavsiflab, olingan bilimlarning mavjudligini va ularni amaliyotda qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi.
2. Ijtimoiy kompetentlik esa, jamoada qabul qilingan birgalikdagi faoliyat, hamkorlik hamda muloqot qilish usullarini egallashni tavsiflaydi.
3. Shaxsiy kompetentlik o'zini o'zi ifodalash va rivojlantirish yo'llarini, mutaxassisning ijodiy faoliyatini rejalashtirishi, mustaqil qarorlarni qabul qilishi va qo'yilgan muammolarni ko'ra olish qobiliyati, deformatsiyaga qarshilik ko'rsatish vositalarini egallashni xarakterlaydi.
4. Individual kompetentlik o'zini-o'zi tartibga solish, o'sishga tayyorligi va barqaror motivatsiyaning mavjudligini tavsiflaydi.

Bizning nazarimizda, quyidagi tarkibiy qismlarni pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi tinglovchilarining kompetentligining tarkibiy qismlari sifatida aniqlab, ajratish mumkin, ya'ni: motivatsion-irodaviy, funksional, kommunikativ va reflektiv.

Motivatsion-irodaviy komponentga: motivlar, maqsadlar, ehtiyojlar, qadriyatlar va kasbdagi ijodkor shaxs bo'lishga intilishi; faoliyatga qiziqishi kabilar kiradi.

Funksional - komponent, mutaxassis tomonidan muayyan texnologiyalarni loyihalash va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yo'nalishning faoliyat usullari haqidagi bilimlar kiradi.

Kommunikativ - komponent fikrlarni aniq ifodalash, ishontirish, bahslashish, dalillar keltirish, tahlil qilish, xulosalarni qilish, oqilona va hissiy ma'lumotlarni tezda uzatish, o'zaro aloqalarni o'rnatish, hamkasblarning harakatlari bilan o'z harakatlarini muvofiqlashtirish, turli biznes faoliyatlarida muloqot qilish uslubini tanlash, muloqotni tashkil etish va saqlab qolish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Reflektiv - komponent o'z ichiga faoliyatning natijalarini, o'z rivojlanish darajasini, shaxsiy yutuqlarini ongli ravishda nazorat qilish qobiliyatini namoyon etadi; ijodkorlik, tashabbuskorlik, hamkorlikka e'tibor, hamkorlik kabi sifat va xususiyatlarni shakllantiradi, shaxsiy yutuqlari, insonlar bilan muloqotda shaxsiy ma'nolarni qidirish, o'zini o'zi boshqarish, shuningdek, o'zini o'zi bilish, tanish, o'sish, ko'nikmalarni takomillashtirish va individual ish uslubini shakllantirish demakdir.

Tinglovchilar kompetentlikni shakllantirish tizimi har qanday tizim kabi boshqaruv aloqalariga ega. Boshqaruvning dinamik tabiati, nazorat parametrining mavjudligi teskari aloqa, yo'nalishning mavjudligi kabilar katta o'rin tutadi.

Ushbu tizim orqali tinglovchilar ingliz tilini o'rganishi jarayonida kompetentligini shakllantirish bo'yicha kommunikativ faoliyati tahlilini o'qituvchi va talabaning unga tuzatish kiritishni tashkil etish orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bu bir tomondan, pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi tinglovchilar ingliz tilini o'rganishi jarayonida kasbiy kompetentligini shakllantirish tizimining tarkibiy qismlari nisbatan mustaqillik, ma'lum bir darajada erkinlikka ega, boshqa tomondan esa, ular o'zaro bog'liq holda tinglovchilar ingliz tilida muloqot qilishga tayyorlik va qobiliyatning shakllanishi uchun sharoit yaratishning yaxlit sifatiga ega ekanligi isbotlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзаева Холида Нормуродовна. (2023). Халқ таълими ходимларининг коммуникатив компетенцияларини такомиллаштириш моҳияти. *Journal of Integrated Education and Research*, 7(1), 50–52. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/1217>
2. Mirzaeva M.N. Formation of the concept and technology of intercultural competition among students in universities. International scientific journal "Scientific Horizons" No.5 / 2018- P. 81-84p
3. Mirzaeva M.N. Technology forming professional competence of students of the technical university in the lessons of foreign languages // International scientific journal "Scientific Horizon" No. 8/2019 -27-31s.
4. Mirzaeva Kholida Normurodovna. (2023). Improving Communicative Competence Of Public Education Staff. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 22, 6–8. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/4228>
5. Ashirmatova Manzura Djumanbaevna. (2022). New Pedagogical Technologies in Teaching the Russian Language. *Eurasian Research Bulletin*, 14, 169–170. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/2637>
6. Ashirmatova Manzura Jumanbaevna. (2022). ACTIVITY AND COMMUNICATION ASPECTS OF RUSSIANSPEAKING COMPETENCE OF A FUTURE SPECIALIST IN AGRARIAN UNIVERSITY. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 3(2), 3-4. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/1802>
7. Rakhmatjonovna K. T. The Importance of Using Methods in the Teaching of German Language //European Journal of Humanities and Educational Advancements. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 27-29.
8. Mirolimovich X. M. BEGRIFFE DER SELEKTION UND SAMENZUCHT IN DER DEUTSCHEN SPRACHE //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2023. – Т. 3. – №. 04. – С. 132-136.
9. Kamilova Durdona Kozimdjanovna. (2023). TADBIRKORLIK SOHASI ATAMALARINING TILLARDAGI MOHIYATI. *The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development*, 1(5), 1–3. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/RESMD/article/view/1021>
10. Moldabergenovna, Abdijalilova Nazerke Akilbekovna Yeljanova Akhnur. "STAGES OF WORD FORMATION IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES." (2023).